



YOSHLAR ISHLARI
AGENTLIGI



RESPUBLIKA YOSH OLIMLAR
KENGASHI

“ILM-FAN VA YOSHLAR”

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYASI

MATERIALLARI TO‘PLAMI
9-aprel, 2024-yil

Toshkent – 2024

UO‘K 316.422:008(575.1)
KBB 71.0(50’)
X 72

Mas’ul muharrirlar

M.Abdullazoda, F.Muzaffarova, M.Fayzullayeva, F.Nabiyeva

Nashrga tayyorlovchi

F.J.Muzaffarova

Ushbu ilmiy konferensiya “Ilm-fan va yoshlar” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ilm-fan va ta’lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan tegishli qarorlarida ko‘zda tutilgan vazifalar ijrosini ta’minlash, talabalar, magistrantlar, doktorantlar va yosh olimlarning ilmiy tadqiqot natijalarini keng yoritish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi hamda Respublika yosh olimlar kengashi tomonidan tashkil etildi.

“Ilm-fan va yoshlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi tahrir kengashi:

Saidova Sayyora Alisher qizi – Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Respublika yosh olimlar kengashi NNT direktori Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi v.b. dotsent

Zamonov Zokir Turg‘inovich – Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Matkarimova Nilufar Boqijonovna – Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Yoshlar ishlari agentligi markaziy apparati bosh mutaxassisi;

Muzaffarova Farangiz Jo‘raxon qizi – O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti;

Abdullazoda Madina Rasuljon qizi – O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti;

Fayzullayeva Madina Abdumo‘min qizi – Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistranti;

Nabiyeva Firuza Odil qizi – Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti.

“Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida madaniy islohotlarni amalga oshirishning dolzarb masalalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami [Matn]. – Toshkent: “Donishmand ziyosi”, 2024. – 336 bet.

Eslatma! Konferensiya materiallari to‘plamiga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

ISBN 978-9910-715-07-5

© «Donishmand ziyosi», 2024

YOSHLAR JAMIYAT IDEOSFERASINI YANGILOVCHI KUCH



Turdiyev Bexruz Sobirovich
Buxoro davlat universiteti, Yurisprudensiya va
ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrası dotsenti, f.f.f.d. (PhD)
b.s.turdiyev@buxdu.uz

Annotatsiya: Milliy tiklanishdan milliy yuksalish g'oyasiga sodiq bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash va voyaga yetkazish mamlakatimiz siyosatining ustuvor vazifasidir. Chunki mamlakatimizda uchinchi renessans poydevorini barpo etish ko'p jihatdan yuksak ma'naviyatli yosh avlod kamoloti bilan bog'liq. Mazkur maqolada barkamol avlod dunyoqarashi va tafakkurini o'zgartirish masalasi tahlil etilib, ezgu g'oyalarni yoshlar ongiga singdirish sohasidagi ustuvor vazifalar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: islohot, tafakkur, madaniyat, avlod, siyosat, yoshlar, xalq, siyosat

Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, siyosiy faolligini oshirish, kasbiy, jismoniy, ma'naviy hamda intellektual salohiyatini yuksaltirish, zamonaviy kasb-hunarga yo'naltirish, sportga jalb etish va sog'lom oilani shakllantirish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Keyingi yillarda mamlakatimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida O'zbekiston taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar tufayli barcha jabhalarda tub o'zgarishlar ro'y berib, yoshlarimizning dunyoqarashi, ongu tafakkuri yuksalmoqda. Jamiyatimizda yangicha qadriyat va an'analar shakllanmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning yoshlar tafakkurini o'zgartirish zarurati to'g'risidagi quyidagi fikrlari e'tiborga molik: "Barchamiz yaxshi bilimziki, insonning ongi va dunyoqarashi, fikri o'zgarmasa, jamiyat o'zgarmaydi. Jamiyat o'zgarmagan joyda hech qanday ijobiy natija ham, taraqqiyot ham bo'lmaydi. Odamlarning ongu tafakkurini o'zgartiruvchi kuch esa, hech shubhasiz, avvalo, o'qituvchi-murabbiylar, oliyog' domlari, ilm-fan arboblari, madaniyat va san'at, adabiyot namoyandalari. Bugun biz yashayotgan jamiyatga yangi fikr, yangi g'oya, eng muhimi, islohotlarni amalga oshirishga qodir bo'lgan yangi avlod kadrlari kerak" [1].

Demak, yurtimizda yoshlar o'rtasida yangicha dunyoqarash va tafakkurni shakllantirishda, avvalo ularga yurtimizda olib borilayotgan keng ko'lamlı islohotlarni targ'ib qilish, mamlakatimiz va dunyoda sodir bo'layotgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatdan xabardor qilish dolzarb ahamiyatga ega. Shundan kelib chiqib, mamlakatimizda yoshlar tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, ularning intellektual, ijodiy va jismoniy salohiyatini kamol toptirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish

davlatimiz olib borayotgan siyosatining diqqat markazida turibdi. Xususan, mamlakatimizda 2016-yil 14-sentyabrda "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi, 2017-yil 30-iyunda O'zbekiston yoshlar ittifoqining tashkil etilishi, 2018-yil 25-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni asosida "El-yurt umidi" jamg'armasining tashkil etilishi, 2020-yilda Yoshlar ishlari agentligi tashkil etilishi hamda 30 iyunni – "Yoshlar kuni" deb e'lon qilinishi yuqoridagi fikrimizning yorqin isbotidir. Ushbu hayotbaxsh siyosatni izchil amalga oshirilishi xalqimiz kelajagi, suyanchi va davomchisi hisoblangan yosh avlod vakillarini zamonaviy dunyoqarashga ega bo'lgan, jahonning ilg'or fan yutuqlaridan xabardor qilib kamol topishiga xizmat qilishi, shubhasiz albatta.

Bundan tashqari, yurtimizda yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish, jumladan, yosh avlod bilan ishlash samaradorligi mexanizmini baholashni amalga oshirish maqsadida respublikamizda yoshlar siyosatini baholashning milliy indeksini ishlab chiqilishi diqqatga sazovor hodisalardandir. Mamlakatimizda ma'nan va jismonan sog'lom avlodni voyaga yetkazishni tizimini yo'lga qo'yish maqsadida "O'zbekiston yoshlari – 2025" konsepsiyasining qabul qilinishi bu sohada muhim islohotlardan biridir.

Shuningdek, yurtimizda yoshlar tafakkurida yangicha dunyoqarashni shakllantirish maqsadida 2020 yilning 12-13 avgust kunlarida yurtimizda inson huquqlari bo'yicha "Yoshlar-2020: global birdamlik, barqaror rivojlanish va inson huquqlari" Samarqand forumi o'tkazilganligi misolida ham ko'rishimiz mumkin. Forum yoshlar huquqlarini targ'ib qilishning dolzarb masalalarini qamrab olib, BMT miqyosidagi Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiya loyihasi muhokama qilinishiga imkon yaratib, forumda O'zbekistondagi yoshlarga oid davlat siyosatining tendensiyalari, natijalarini butun dunyo afkor ommasiga ko'rsatilishga muhim qadamlardan bo'ldi [2].

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2040 yilga kelib mamlakatimiz aholisi 50 mlnga yetishi, aholining yarmidan ko'pini esa, yoshlar tashkil etishi kutilmoqda. Shunga muvofiq, yoshlarga munosib sharoit yaratib berish uchun, har yili 250 ming yangi o'quvchi o'rni, o'nlab zamonaviy shifoxonalar, kamida 200 mingta yangi uy-joy, 1 mln doimiy ish o'rni, 25 – 30 mlrd dollar investisiya jalb etishini taqozo etmoqda [3]. Shuning uchun yoshlarning har tomonlama rivojlanishi uchun ularga tegishli imkoniyatlar, ya'ni sog'lom va uy-joyli bo'lish, ta'lim olish, ishga joylashish, band bo'lish va dam olish imkoniyatlarini yaratish zarurligini ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizda yoshlar ijtimoiy muammolarni bartaraf etish, ularni ishsizlikdan himoya qilish va kambag'allikni qisqartirish choralari qatorida mahallalar kesimida ijtimoiy himoyaga muhtojlar ro'yxati ("Temir daftar", "Ayollar daftar", "Yoshlar daftar" va "Mehr daftar") shakllantirilib, mahallalarda bu borada ish yuritish yo'lga qo'yildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan yoshlarni xorijiy tillarni egallab, chet elda mehnat qilish huquqlarini amalga oshirish borasida ham ularni kasbiy tayyorlash va ishga joylashtirishning xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimi yaratilgani muhim qadamlardan biriga aylandi.

Mamlakatimizda kelajagimiz vorislarini qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning orzu-intilishlari, qobiliyat va salohiyatini ro'yobga chiqarish

2023-yil 30-aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlandi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIV bobi va undagi 78 va 79-moddalar yoshlarga oid alohida normalar bilan to‘ldirilib, yoshlarning huquq va manfaatlari, qadr-qimmatini yanada yuksaltirish hamda ular faoliyatini qo‘llab-quvvatlanishi konstitutsiyaviy asosga ega bo‘ldi.

Bugun yangi O‘zbekiston taraqqiyotida jamiyat ideosferasining yangilanishi yoshlarda yangicha tafakkur tarzini shakllantirib, ularni milliy g‘oya ruhida tarbiyalash va amalga oshirayotgan islohotlarga daxldorlik hissini uyg‘otmoqda. Bu borada, mamlakatimiz yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda bosh islohotchilik qilmoqda:

birinchidan, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, ularda xalqimizning ko‘hna va boy madaniy merosidan faxrlanish tuyg‘usinishakllantirish, ularga vatanparvarlik va tug‘ilgan makonga nisbatan mehr-muhabbat tuyg‘usi ruhida kamol toptirishga g‘amxo‘rlik qilmoqda. Mamlakatimizda yoshlarga qaratilayotgan bunday e‘tibor jamiyatning tinchligi, yaxlitligi va barqaror rivojlanishi uchun zarur holatdir. Zero, aynan ushbu vazifaga loqayd qarash jamiyat, millat va xalqning tanazzuliga sabab bo‘lishi mumkin;

ikkinchidan, davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta‘minlab, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantirib kelmoqda. Uchinchi renessansni buyod etishga intilar ekanmiz, bunga kelajagimiz davomchilari bo‘lgan yoshlarning huquqlarini himoya qilmasdan turib, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirokini ta‘minlamasdan turib, hech qachon erisha olmaymiz;

uchinchidan, davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta‘lim olishga, sog‘lig‘ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratib, ularni qo‘llab-quvvatlamqda.

Xulosa qilib aytganda, yurtimizda yoshlarga oid davlat siyosatining izchil amalga oshirilishi negizida yoshlar tafakkurini o‘zgartirish va ularning manfaatlarini himoya qilish ustuvor ahamiyatga ega. Zero, mamlakatimizda yoshlarni davlat tomonidan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar yoshlar dunyoqarashining o‘zgarishiga, ularning jamiyatimizdagi barcha sohalardagi rivojlanish jarayonida faol ishtirok etishi va uning taraqqiyoti uchun mas‘ulligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi// “Xalq so‘zi” gazetasi”, 2020 yil 1 oktyabr, № 207 (7709).
2. Турдиев Б.С. Ўзбекистонда демократик жамият ривожланишида маънавий янгиланишлар стратегияси. –Т.: “Lesson Press”, 2023. –Б.92.
3. Янгиланаётган Конституция. 100 саволга 100 жавоб. – Т.: “Адолат” миллий ҳуқуқий ахборот маркази, 2023. –Б.127-128.

USE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN THE PROCESS OF TEACHING A FOREIGN LANGUAGE



Pirnazarova Sevara Doniyor qizi,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
2-bosqich talabasi,
Toshkent shahri, Yunusobod tumani, G‘ayratiy
ko‘chasi
telefon raqami: +998901109480
e-mail: mojmarket350@gmail.com



Ilmiy rahbar: Bagautdinova Ilmira Salavatovna,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
1-bosqich tayanch doktoranti
Toshkent shahri, Chilonzor G9-6-8
telefon raqami: +998909807261
e-mail: ilmira_bis@mail.ru

Abstract: *This article explores the importance of integrating information technologies into foreign language education in higher education institutions, considering students' future professional endeavors. It emphasizes the significance of creating real and imaginary communication situations in language classes using various methods and techniques. The main elements of information technologies widely used in education, such as interactive whiteboards, electronic textbooks, internet resources, and distance learning, are discussed. The article highlights that the use of computer technologies in education significantly enhances the intensity and effectiveness of the learning process, fostering the development of students' critical and creative thinking.*

Keywords: *foreign language education, higher education, information technologies, communicative competence, electronic textbooks, distance learning, computer technologies, creative thinking, student motivation.*

Teaching a foreign language in higher education institutions should be focused on the future profession of students. The validity of this principle is beyond doubt. And in the process of learning translation, students develop the communication skills necessary for their future careers.

It is very difficult to master communicative competence in a foreign language without being in the country of the language being studied. Therefore, it is necessary that the teacher creates real and imaginary situations of communication in a foreign

MUNDARIJA:

Risqaliyev Jaxongir		Kozimjonova Moxigul	
Internetdan rasmlarni izlash vositalari	4	Ahadjon Mamadaliyev	72
Qobilov Ergash Egamberdiyevich		Chang musiqa cholg'usining tarixiy bosqichlari	
Ashurmahmatov Sarvar Isroil o'g'li		Jo'rayeva Mehriniso Safar qizi	
Mardonova Fariza Sanjar qizi		“Daftar hoshiyasidagi bitiklar” asarida qo'llanilgan an'anaviy va xususiy- muallif o'xshatishlarning tahlili	75
Shukrullayeva Malika Baxshulloyevna		Kilichov Jasur Ruzikulovich	
Kumakova Xanifa Nuritdinovna		Almardonov Asliddin Faxriddin o'g'li	
Tibbiy chiqindilarning inson salomatligiga ta'siri	6	Abonent kirish tarmog'larining qurishlash tamoyillari va tarkibiy texnologiyalari	78
Maqsad Isabayev		Jamolova Xonzoda O'rolboy qizi	
Davlat boshqaruvining mahalliy vakillik instituti faoliyati: muammo va yechimlar	11	Ilm-fan va yoshlar	85
Ibraximova Iroda Bobir qizi		Eraliyeva Nigora Farhodjon qizi	
Lisoniy identiklikni tadqiq etishda nazariy yondashuvlar	26	Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda islom banklarining o'rni	88
Turdiyev Bexruz Sobirovich		Norboyeva Maftuna	
Yoshlar jamiyat ideosferasini yangilovchi kuch	29	Islom qimmatli qog'ozlarining turlari bo'yicha tasniflanishi	92
Pirnazarova Sevvara Doniyor qizi		Ulug'ova Nozima Bahtiyorovna	
Bagautdinova Ilmira Salavatovna		Xojanova Mexriban	
Use of information and communication technologies in the process of teaching a foreign language	32	Sahna ortidagi ijodkor, grim san'ati ustalari	95
Ahliddin Tursunov		Темиркулова Н.М.	
Jurnalistikada marketing va reklama	35	Тупрокқа ишлов бермасдан такрорий экинларни экадиган сеялка зиг-загсимон дискли юмшаткичнинг диаметри ва диск тигининг ўткирланиш бурчагини асослаш	98
Odilova Kamola Taxirovna		Холиқулов Жамшид Ўқтамқул ўғли	
Polycode texts transformation: exploring the evolution and implications	40	Комбинациялашган машина зичлагичига бериладиган тик юкланиш ва у босим пружинасининг таранглик кучини аниқлаш	101
Abdiyev Xasan Ergash o'g'li		Abdurahmonova Muslima Fazliddin qizi	
Texnika oliy o'quv yurtlarida kelajak muhandislarini tayyorlash jarayonida zamonaviy didaktik vositalardan foydalanish metodikasi	47	Ingliz va o'zbek tillarida modallik hamda uning ifodalanishi	105
Toxirova Madina Alisher qizi		Radjabova Muxtasar Davranbekovna	
Bolalardagi interfaollikni oshirish uchun metodlar	50	Arab tilida talabalarning yozma nutqini o'qish ko'nikmasi bilan inte- gratsiya qilish asosida shakllantirish	108
Hamzayev Akbarxon Ilash o'g'li		Xusanova Zuhra Almamat qizi	
Choriyev Sanjar Salim o'g'li		Ingliz tilidagi intervyu diskursining kognitiv modeli	111
Elektron tekstil sanoatining energetika sohasida istiqbollari	53	Tugalov Boburjon Baxodir o'g'li	
Habibullayeva Shoirra Farhod qizi		Qabr inshootlarining va dafn marosimlarining o'rganilish tarixi haqida	114
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qish savodxonligini rivojlantirishda multimedia vositalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish	59	Orif Abdig'apparov Abdunazar o'g'li	
Tajiboyev G'olibjon G'ulomjonovich		Vodiy qoraqalpoqlari turmush tarzi va xo'jalik madaniy an'analari	121
Sharifjanov Avaz Alisher o'g'li		Raximova Shaxribonu Mirzaxitovona	
O'zbekiston sharoitida chufa (<i>Cyperus esculentus</i> L.) o'simligini yet- ishtirish, va tarkibini o'rganish	61	Retseptiv til ko'nikmalarini o'qitish va baholashning o'ziga xos xususiyatlari	123
Mo'minov Muslimjon Ismoil o'g'li		Avliyakulova Fotima Nusratovna	
Manzarali daraxt ko'chatlarini ekadigan mashina uya ochgichining o'lchamlarini tanlash uchun ko'chatlarning ekilish chuqurligi va sxemasini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar	67	Chet tilini bilish - O'zbekiston Respublikasining reytingini oshirish	126
		Safarova Zarnigor	128